



ANDIJON VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

# ANDIJON VILOYATIDA FAN VA INNOVATSIYA SOHASI



2020 - YIL YAKUNI BO'YICHA

Raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda aqliy salohiyatning o'rnini beqiyos. Iqtisodiyotda inson omilini kamayirgan holda, sifat va samaradorlikni o'sishini ta'minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Barcha sohalarida bo'lgani kabi, ilm-fan va innovatsion tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish, bu borada yaratilgan har qanday ilmiy natijalarni amaliyotga keng joriy etishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatoridan joy egallashi uchun faqat jadal islohatlar, ilm-fan va ma'rifat, ilg'or innovatsiyalarni hayotga tadbqiq etish orqali amalga oshirish mumkin. Innovatsion g'oyalarning ilm-fan va sanoat bilan uzviy hamohangligi islohatlar samaradorligining asosiy mezonidir.

Davlatimiz rahbari ta'kidlagandek: *“Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart”*.

Ilg'or innovatsion tadqiqot ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi, hamda davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham ularni keng joriy etish bilan natijakorlikni oshirish, boshqacha aytganda odamlar turmush tarzini keskin yaxshilash mumkin.





## *Ma'lumot uchun*

**Oliy ta'limdan keyingi ta'lim** - oliy ta'limdan keyingi ta'limni oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.





## 2020-yilda Andijon viloyatida oliy toifali ilmiy va Ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash

2020-yilda Andijon viloyati bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimi–tayanch doktoranturasi mavjud bo'lgan tashkilotlar soni 5 tani tashkil etdi. Ulardan 4 tasi oliy ta'lim muassasalarida va 1 tasi ilmiy tashkilotlarda faoliyat olib boradi.

Yil yakuniga ko'ra falsafa doktori (Doktor of Philosophy (PhD) ilmiy darajasi izlanuvchilari soni 175 nafardan iborat, ulardan 54 nafari yoki 30,9 % ni ayollar tashkil etadi. Izlanuvchilarning 164 nafari oliy ta'lim muassasalarida va 11 nafari ilmiy tashkilotlarda faoliyat olib boradilar. Qabul qilingan falsafa doktori darajasi izlanuvchilari soni 73 nafar bo'lib, ulardan 62 nafari oliy ta'lim muassasalarida va 11 nafari ilmiy tashkilotlarining izlanuvchilari hisoblanadi.



## 2020-yilda tayanch doktorantura institutida ta'lim oluvchilar, qabul qilingan va bitirganlar soni, (kishi)

**Falsafa doktori darajasi izlanuvchilari -175**

Oliy ta'lim muassasalarida 164

Ilmiy tashkilotlarda - 11

**Qabul qilingan falsafa doktori darajasi izlanuvchilari -73**

Oliy ta'lim muassasalarida 62

Ilmiy tashkilotlarda - 11

**Bitiruvchi falsafa doktori darajasi izlanuvchilari - 42**

Oliy ta'lim muassasalarida - 42

Ilmiy tashkilotlarda - x



2020-yilda viloyatdagi tayanch doktorantura institutlarini jami 42 nafar **falsafa doktori** darajasi izlanuvchanlari tamomladilar. Ulardan 11 nafari yoki 26,2 % ayollardan iborat. Jami bitiruvchi-izlanuvchilardan 17 nafari o'zining dissertatsiyalarini himoya qildilar. Ularning barchasi oliy ta'lim muassasalarining izlanuvchilari hisoblanadilar.

Falsafa doktori darajasidagi 175 nafar izlanuvchilarning 46,9 % ni 30 yoshgacha bo'lgan izlanuvchilar, 32,0 % ni 35 yoshgacha bo'lgan izlanuvchilar, 14,9 % ni 35-39 yoshdagi izlanuvchilar va qolgan 6,2 % ni 40 va undan yuqori yoshdagi izlanuvchilar tashkil etadi.

### Ma'lumot uchun

Tayanch doktorantura **falsafa doktori** (Doktor of Philosophy (PhD) - ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.





## 2020-yilda Andijon viloyatida tayanch doktoranturasi mavjud tashkilotlar




2020-yil yakuni bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimi doktoranturasi mavjud bo'lgan tashkilotlar soni 3 ta bo'lib, ulardan 2 tasi oliy ta'lim muassasalari va 1 tasi ilmiy tashkilot hisoblanadi. **Fan doktori** darajasi izlanuvchilari soni jami 13 nafar bo'lib, ulardan 2 nafari ayyollardan iborat. Doktorantlarning 11 nafari ilmiy tashkilotlarda va 2 nafari oliy ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib boradi.



Fan doktori izlanuvchilari soni

13



Qabul qilingan fan doktori darajasi izlanuvchilari soni

12



Bitirgan fan doktori darajasi izlanuvchilari soni

1

## 2020-yilda mustaqil izlanuvchilar faoliyati



Ilmiy muassasa (oliy ta'lim muassasasi) ilmiy kengashida himoya qilingan doktorlik dissertatsiyalari, *(kishi)*

### Mustaqil izlanuvchilar tomonidan

Falsafa doktori darajasiga-7

Fan doktori darajasiga- 4



Hisob yilidan avval OTM keyingi ta'lim beruvchi institutda tayyorgarlikdan o'tgan shaxlar tomonidan

Falsafa doktori darajasiga - 3

Fan doktori darajasiga - 1



OTM dan keyingi ta'lim institutini hisobot yilida, o'z muddatida dissertatsiya himoya qilib tamamlagan shaxslar tomonidan

Falsafa doktori darajasiga-3

Fan doktori darajasiga-4






**2020- yilda tashkilotlar tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalar xajmi, mln. so'm**



***Ilmiy tadqiqot*** - yangi bilimlarni ishlab chiqarish jarayoni, bilish faoliyati turlaridan biri. Unga ob'yektivlik, ishonchlik, aniqlik xos. Ilmiy tadqiqot hamma shartlarga amal qilib takrorlanganda hamisha birdek natija berishi, bahs etilayotgan masalani isbotlashi lozim. Ilmiy tadqiqot bir-biri bilan bog'langan tajriba va nazariyadan iborat.

2020-yilda fan sohalari bo'yicha tashkilotlar tomonidan  
o'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot  
va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga qilingan  
xarajatlar xajmi, (mln. so'm)



**2020-yilda tashkilotlarning o'z kuchi bilan bajarilgan  
ilmiy-tadqiqot ishlanmalariga xarajatlarni  
moliyalashtirish manbaalari, (mln. so'm)**

**Jami xarajatlar -  
5593,2**

**Respublika budjeti  
mablag'lari - 5007,2**

**Tashkilotning o'z  
mablag'lari – 586,0**





**2020- yilda o'z kuchi bilan bajarilgan va sotilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar xajmi (QQS va aksizsiz, mln.so'm)**

**O'z kuchi bilan  
bajarilgan jami  
innovatsion  
mahsulotlar,  
ishlar, xizmatlar  
xajmi  
(QQS va aksizsiz) -  
4465917,2**

**2020- yilda birinchi marta  
o'zlashtirilganlari - 36059,9**

**2018-2019- yillarda birinchi marta  
o'zlashtirilganlari - 57998,1**

**2017-2019- yillarda  
takomillashtirilganlari - 4371859,2**

***Ma'lumot uchun*** 

**Innovatsiya** deganda ilmiy-texnikaviy faoliyat natijasi, realizatsiya qilish jarayonida yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot (tovarlar, xizmatlar) yoki texnologiya, shuningdek ishlab chiqarishning tashkiliy texnikaviy qarorlari, ma'muriy, tijorat yoki boshqa xarakterdagi, texnologiyalatning, mahsulotlarning va xizmatlarning bozorlarda oldinga siljishga yordam berilishi tushuniladi.

## 2020-yilda amalga oshirilgan innovatsiya xarajatlarning moliyalashtirish manbaalari (mln. so'm)



### *Ma'lumot uchun*

**Innovatsiya**, ta'rif bo'yicha tashkilot uchun yangi yoki butun dunyo uchun yangi ma'lum miqdordagi yangilikni o'z ichiga olishi kerak. Yangilikning minimal talab belgisi ushbu korxona tajribasida, mahsulot, jarayon, marketing yo'llari, yoki tashkillash yangi bo'lishi (yoki qisman takomillashtirilgan), yani boshqa korxonalarda aniq bu innovatsiyani ishlatish mumkinligi, lekin ushbu korxona uchun yangi bo'lishi sharti bilan, shunga o'xshash narsa korxona uchun yangi innovatsiya sifatida ko'rib chiqiladi.

## 2020-yilda amalga oshirilgan innovatsion faoliyat turlari bo'yicha xarajatlar tarkibi (mln. so'm)

Texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar - 39829,7



Texnologik innovatsiyalarga xarajatlar - 39829,7



Mahsulor bo'yicha xarajatlar - 37149,6



Jarayonlar bo'yicha xarajatlar - 2680,1





## 2020- yilda Andijon viloyatida joriy qilingan texnologik innovatsiyalar soni

2020-yil yakuni bo'yicha Andijon viloyatida 18 ta tashkilot tomonidan innovatsiyalar joriy qilindi. Joriy qilingan jami texnologik innovatsiyalar soni 66 tani tashkil etdi. Ulardan 41 ta tashkilot o'z kuchi bilan, 25 ta tashkilot boshqa tashkilotlar (ilmiy tadqiqot institutlari) bilan hamkorlikda tadqiq etgan.



Joriy qilingan texnologik innovatsiyalar soni - 66 ta

Tashkilotning o'z kuchi bilan joriy qilingan innovatsiyalar - 41 ta

Boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda joriy qilingan innovatsiyalar - 25 ta



## Innovatsiyalar 3 turga bo'linadi: texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalar


**Texnologik innovatsiyalar** - tashkilotning texnologik yangi mahsulotlar va jarayonlarni, shuningdek mahsulotlar va jarayonlarda sezilarli darajada takomillashtirishlarni, texnologik yangi va sezilarli darajada takomillashtirilgan xizmatlarni, xizmatlar ishlab chiqarilishi (yetkazib berilishi) bo'yicha yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan usullarni ishlab chiqish va joriy etish bilan bog'liq faoliyat nazarda tutiladi.

**Marketing innovatsiyalar** deganda yangi yoki sezilarli yaxshilangan marketing uslublarini joriy etish tushuniladi. Bular o'z ichiga : mahsulotlarning dizayni va qadoqlashida jiddiy o'zgarishlar, mahsulotlarni sotish va taqdimoti bo'yicha, shuningdek ularni bozorlarga tanitish va olg'a siljitish bo'yicha yangi usublardan foydalanish, yangi narx strategiyalarini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

**Tashkiliy innovatsiyalar** – bu biznesni yuritishda, ish o'rinlarini yoki tashqi aloqalarni tashkil etishda yangi uslublarni ishlab chiqishdir. Bunday innovatsiyalar boshqaruv va transaksion xarajatlarni qisqartirish, tashkilot tomonidan ishchilarning ish o'rinlari bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish, mehnat samaradorligini oshirish, bozorda mavjud bo'lmagan aktivlarga yo'l topish yoki yetkazib berish narxini kamaytirish yo'li bilan tashkilot faoliyati samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi.



## 2020- yilda innovatsion faoliyatga to'sqinlik qiluvchi omillar “Innovatsion faollikni kuzatish savolnomasi” tanlanma kuzatuv natijasi bo'yicha



- Moliyaviy mablag'lar yetishmasligi
- Yangiliklarning qimmatligi
- Yuqori iqtisodiy tavakkalchilik
- Malakali xodimlar yetishmasligi
- Yangi texnologiyalar to'g'risida axborotlar yetishmasligi
- Sotish bozorlari to'g'risida axborot yetishmasligi
- Innovatsion infratuzilma rivojlanmaganligi
- Avval amalga oshirilganligi sababli innovatsiyalarga zarurat yo'qligi

Andijon viloyat statistika boshqarmasi  
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi  
Telefon (074) 224-82-69